

**YERDAN OQILONA FOYDALANISH QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISHNING ZARURIY SHARTI**

G‘aybullayeva Mashhura Faxritdinovna

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi*

Yer umummilliy boylik, eng muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Uning hisobini aniq yuritish va samarali foydalanish qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish kabi ko‘plab sohalar uchun juda muhim. Lekin tartib-intizom, hisob-kitob bo‘lmagani sababli minglab gektar yerlar talon-toroj bo‘lib ketgan. Masalan, mamlakatimizda yer xatlovi oxirgi marta 40 yil oldin o‘tkazilgan. 140 ta tuman ma‘muriy chegaralari hozirgacha aniq emas. Qishloq xo‘jaligi yerlarini ajratish tartibi 20 yil oldin qabul qilingan va hozirgi islohotlar talabiga javob bermaydi.

Shu sababli sohada yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun tizimni isloh qilish boshlandi.

Xususan, davlatimiz rahbarining joriy yil 7 sentyabrdagi «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi negizida Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etildi. Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish vazifasi mazkur agentlikka, yerlardan samarali foydalanishni ta‘minlash va nazorat qilish funksiyalari

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga o‘tkazildi. Kuni kecha Prezidentimiz raisligida davlat kadastrlarini yuritishning yangi tizimini samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda yangi tizim asosida ishni tashkil etish uchun birinchi galda yer hisobini joyiga qo‘yib, to‘liq shakllantirib olish zarurligi ta‘kidlandi.

Inchunin, bugungi kunda 340 mingta ob‘ektning kadastr qiymati belgilanmagan. Shundan 200 mingdan ziyod ob‘ekt bo‘yicha soliq hisoblanmayapti.

Qolaversa, 1 milliondan ortiq uy-joyning kadastr hujjati yo‘q. Shu jihatdan ko‘chmas mulk kadastr hisobini to‘liq shakllantirish zarur. Bu soliq solish bazasini kengaytirishda g‘oyat muhimdir. Zero, undan keladigan mablag‘lar to‘liq mahalliy budjetga tushadi va ular hisobidan ijtimoiy masalalarni hal etish mumkin bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat. Hozirgi paytda yer solig‘i hisoblash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish ham hayotiy zaruratdir. Sababi viloyat markazlariga yaqin, suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan hududlarda ham, hosildorligi past joylarda ham yer solig‘i deyarli bir xilda hisoblanadi. Shu jihatdan yerlarning haqiqiy qiymatidan kelib chiqib soliq hisoblash, bunda oshirilgan va kamaytirilgan koeffitsiyentlarni qo‘llash tizimini joriy etish lozim bo‘ladi.

Videoselektor yig‘ilishida yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik yoki yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olish muammosiga ham

to'xtalib o'tildi. Chunki joriy yilda 50 mingga yaqin holatda 11 ming 200 gektar yer o'zboshimchalik bilan egallangan. Shundan 3 200 gektarda noqonuniy uy-joy qurilgan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini amalga oshirishda:

- qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish;
- qishloq xo'jaligi yerlarining muhofaza qilinishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatini va sifat ko'rsatkichlarini

aniqlash

O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti, Qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish boshqarmasi va hududiy yer tuzuvchilar faoliyatini tashkil etish uchun zaruriy vositalar bilan ta'minlashga xalqaro grant mablag'larini o'rnatilgan tartibda jalb qilish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan, samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishni raqamlashtirish; qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari: hududlarda qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish ishlarini samarali tashkil etish; tuproq bonitirovkasini o'tkazish, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarini amalga oshirish yuzasidan shaxsiy mas'uliyat va javobgarlik yuklansin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Худойбердиев, Ф. Ш., Бобожонов, С. Ў., & Мухаматов, Қ. М. Ў. (2022). **МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ЧИҚИНДИ ОБЪЕКТЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ**. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 967-976.

2.Худойбердиев F.Sh, Mumadov Q.M, Bobojonov S.O, & Saidov S.S. (2022). **ЧИКИНДИ ПОЛИГОНЛАРНИНГ АТРОФИДАГИ ЕКИН ЕРЛАР, СУВ ҲАВЗАЛАРИ ВА АХОЛИ ЯАШАШ ЖОЙЛАРИГА ЗАРАРИНИ ОРҒАНИШ ҲАМДА БУ БО'РАДАГИ ХОРЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ**.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589959>

3.Sh, Khudoyberdiyev F. "Monitoring the Location of Cultivated Lands, Settlements and Water Basins in the Selection of Land for Location of Waste Landfills and Inclusion of Them in the Geo Database." *Kresna Social Science and Humanities Research* 8 (2022): 53-59.

4.Sh, Khudoyberdiyev F. "FORMATION OF A GEODATABASE OF WASTE LANDFILLS AND GEOVISUALIZATION BASED ON GEOINFORMATION TECHNOLOGIES." "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.

5.Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 8, 66-69.

6.Khudoyberdiyev Feruz Shamshodovich, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). INNOVATIVE APPROACH TO PASTURE MANAGEMENT AND PRODUCTIVITY IMPROVEMENT. *Academica Globe: Inderscience Research*, 2(05), 491–494. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7VQ69>

7.Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(3).

8.Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Achieve Effective Results Through Pasture Management. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3, 9-12.

9.Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).

10.Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Measures to Prevent Degradation of Pastoral Lands" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).

11.Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(3).

12.Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». *Вестник Хорезмской Академии Мамуна*, 17-20.

13.Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобожонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩНЫХ ЗЕМЕЛЬ. *The Way of Science*, 69.

14.Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 76-78).

15.Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 3-3.

16.Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. *Землеустройство, кадастр и мониторинг земель*, (10), 24-27.

17.Xudoyberdiyev, F. S. (2020). TAKRORIY EKIN-QO ‘SHIMCHA DAROMAD. *Студенческий вестник*, (24-6), 47-48.